

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“IFODA AGRO KIMYO HIMOYA” MCHJ

“URALXIM GROUP” KOMPANIYASINING O‘ZBEKISTONDAGI VAKILI  
“FERTEPRO” MCHJ

“ALEM AGRO ASIA” MCHJ

“AGRO KIMYO HIMOYA VA O‘SIMLIKLER KARANTINI”  
ILMIY-AMALIY JURNALI



“BARQAROR RIVOJLANISHDA YER RESURSLARIDAN SAMARALI  
FOYDALANISH STRATEGIYALARI” MAVZUSIDAGI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING  
AXBOROT XATI

**24-aprel 2026-yil**

**HURMATLI HAMKASBLAR!**

Sizlarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 11-son buyrug‘i va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi”ning 360-bandiga muvofiq, 2026-yil 24-aprel kuni Toshkent davlat agrar universitetida **“Barqaror rivojlanishda yer resurslaridan samarali foydalanish strategiyalari”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etishga taklif qilamiz.

**Anjuman quyidagi sho‘balarda ish olib boradi:**

1-sho‘ba: Iqlim o‘zgarishi va global xavflar sharoitida yer resurslarini barqaror boshqarish: oziq-ovqat xavfsizligi, tuproq degradatsiyasi va suv tanqisligiga moslashuv strategiyalari.

2-sho‘ba: Yer resurslarini boshqarishda geoaxborot tizimlari (GIS), masofadan zondlash, sun‘iy intellekt va raqamli modellashtirish texnologiyalarining zamonaviy yechimlari.

3-sho‘ba: Qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor va “yashil” innovatsion texnologiyalar asosida tuproq unumdorligini oshirish strategiyalari.

4-sho‘ba: O‘simliklar karantini va o‘simliklar himoyasida innovatsion hamda ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish istiqbollari.

5-sho‘ba: G‘o‘za, don va dukkakli ekinlar seleksiyasi va agrobiotexnologiyasida barqaror yer resurslaridan foydalanish o‘rni va ahamiyati.

6-sho‘ba: Sabzavot, poliz va meva ekinlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashda tuproq unumdorligi hamda o‘zlashtirish tizimining barqaror boshqaruvi.

7-sho‘ba: Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishida yer va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning ekologik-iqtisodiy mexanizmlari va innovatsion strategiyalari.

Anjumanga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi mas‘ul xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, FAO, Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, O‘zdaverloyiha DILI, “Tuproq tarkibi va repoziatoriysi, sifati tahlil markazi” DUK, Toshkent davlat agrar universiteti, agroklastar rahbarlari va mutaxassislari, sohaga aloqador ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, doktorant (DSc), mustaqil izlanuvchilar, ilmiy xodimlar, amaliyotchi mutaxassislar, magistrlar va talabalar taklif qilinadi.

## **MA’RUZA TEZISLARINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI:**

1. Ma’ruzalar matni o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Materiallar **3 betdan kam 7 betdan ko‘p** bo‘lmasligi lozim. Materiallarni elektron shaklda **91-266-72-72 telegram raqamiga** yuborishi mumkin.

2. Ma’ruzalar **A4** o‘lchamdagi qog‘ozda, qator oralari **1,5 interval**, shriftlar o‘lchami **14 keglda**, chapdan **30 mm**, o‘ngdan **15 mm**, yuqori va pastki chegaralari mos ravishda **20 mm** bo‘lishi lozim. Ma’ruzaning elektron varianti Microsoft Word (**.docx, .rtf** shaklida) dasturida **Times New Roman** shriftida yozilgan holda jo‘natilishi shart. Ilmiy amaliy anjuman natijalari bo‘yicha har bir muallifga **sertifikatlar** taqdim etiladi.

3. Chap chegaradan katta harflar bilan **1 intervalda** ma’ruza nomi, **3 interval** pastda kichik harflarda **familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi, ish joyi** hamda har bir muallifning alohida **e-mail elektron pochta**si va **ORCID** raqamlari yozilsin.

4. UO‘T. <http://teacode.com/online/udc/> veb-havola orqali topish mumkin.

5. Annotatsiya va kalit so‘zlar **3 tilda** (o‘zbek, rus va ingliz) yozilishi shart. O‘zbek tilida taqdim etilgan maqolalar **lotin alifbosida** yozilishi shart.

6. Maqolalar **IMRAD** talabi bo‘yicha **Kirish (adabiyotlar sharhi), Materiallar va uslublar, Natijalar va munozara, Xulosa va tavsiyalar, Foydalanilgan adabiyotlar** qismlaridan iborat bo‘lishi lozim.

7. Ilmiy maqolalarda keltirilgan ma‘lumotlarga muallifning **shaxsan o‘zi javobgar** bo‘ladi.

8. Tashkiliy qo‘mita konferensiya yo‘nalishiga mos bo‘lmagan, yuqorida keltirilgan talablarga javob bermagan hamda grammatik xatolari mavjud bo‘lgan materiallarni **chop etmaslik huquqiga ega**.

9. Maqolalar O‘zR OAK ro‘yxatiga **kiritilgan “Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini”** jurnalining maxsus sonida chop ettiriladi (Ushbu jurnal **DOI (Digital Object Identifier)** ilmiy hujjatlarni tan olishni ta‘minlovchi identifikatorga ega). Maqola uchun to‘lov miqdori **300 000 so‘m**. To‘lov uchun plastik karta: **5614681281445043 (Janibek qizi Diyana)** Shuningdek, **Google Scholar** xalqaro bazalarda indeksatsiya qilinadi. Jurnalning elektron shakli <https://agrokimyo.uzsci.uz> rasmiy veb sayti hamda <https://t.me/karantinjurnali> telegram kanalida e‘lon qilinadi.

Ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etish uchun ma’ruza tezislari **2026-yilning 10-apreliga qadar qabul qilinadi**.

Maqolalar qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot **3 ish kuni** ichida mualliflarga xabar qilinadi.

**Manzil:** Toshkent davlat agrar universiteti, 100700, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2A-uy.

### **Murojaat uchun telefonlar:**

M.Saidova - (+998 99) 878-50-16;

N.Raupova - (+998 99) 472-45-74;

B.Xalimov - (+998 99) 857-06-02;

M.Urmanova - (+998 99) 879-58-48;

Janibek qizi Diyana - (+998 91) 266-72-72.

# MAQOLANI RASMIYLASHTIRISH UCHUN NAMUNA

UO‘T: 631.4

## LALMI TO‘Q TUSLI BO‘Z TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY XOSSALARI

**Abdullayev Abdulla Abdullayevich,**  
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor  
Toshkent davlat agrar universiteti  
<https://orcid.org/0000-1234-5678-9101>

**Annotatsiya.**

**Аннотация.**

**Abstract.**

**Kalit so‘zlar:**

**Ключевые слова:**

**Keywords:**

**Kirish.**

**Materiallar va uslublar.**

**Natijalar va munozara.**

**Xulosa.**

**Adabiyotlar.**



### ISHTIROKCHI ARIZASI

“Barqaror rivojlanishda yer resurslaridan samarali foydalanish strategiyalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman ma’lumotlari:

Muallifning F.I.Sh. to‘liq ochib beriladi.	
Ilmiy darajasi, unvoni	
Lavozimi	
Tashkilot nomi va manzili	
Telefon va elektron manzili	
Ma’ruza turi (sho‘ba yig‘ilishida)	
Sho‘ba yo‘nalishi	
Ma’ruza mavzusi	
To‘lov cheki	
Sana	
Imzo	